

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich
Qarshi Xalqaro universiteti dotsenti (90 175-42-07)

MA'NAVIYAT – BARCHA TARBIYALARNING MUSTAHKAM ILDIZI

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy etuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasi ekanligi, tarbiyaning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiyalash hamda ma'naviy tarbiya subyektlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, tarbiya, barkamol inson, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, oila mahalla.

Лутфуллаев Абдували Абдунабиевич
Доцент Каршинского международного университета
ДУХОВНОСТЬ — САМЫЙ СИЛЬНЫЙ КОРЕНЬ ВСЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье говорится, что воспитание духовно зрелой и всесторонне развитой личности является уровнем государственной политики, и что существует множество видов образования, в том числе интеллектуальное воспитание, умственное воспитание, трудовое воспитание, физическое воспитание и духовное воспитание.

Ключевые слова: Духовность, образование, всесторонне развитый человек - это образование мысли, образование ума, образование труда, физическое воспитание, семья и соседство.

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich
Associate professor of the Karshi international university

SPIRITUALITY IS THE STRONGER ROOT OF ALL EDUCATION

Annotation. The article states that raising a spiritually mature and well-rounded person is a state policy level, and that there are many types of education, including intellectual education, intellectual education, labor education, physical education, and spiritual education.

Keywords: Spirituality, education, a well-rounded person, they are education of thought, education of the mind, education of labor, physical education, family and neighborhood.

Kirish (Introduction).

Yurtimizda bugungi kunda ma'naviy etuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xalqimiz milliy ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san'at, ilm-fan, ta'lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi o'zi, alohida kasb etadi. Ta'lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Bu borada O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi- deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Tarbiyaning yoshlar hayotidagi o'рни va ularga zamonaviy yondashuvlar haqida O'zbekiston prezidenti Sh.M Mirziyoyevning asarlari[3,4], D.R Farsaxonova[6], Z. Ismailova[8], A.P. Erkayevlar [7] ilmiy ishlarida keng yoritilgandir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish tahlil qilindi va ma'naviy tarbiya va ma'naviy tarbiyaning baholash uchun ilmiy asoslangan indikatorlari haqida tavsiyalar keltirib o'tildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, qalbi va ongi bilan bog'liq bo'lib, uning butun vujudi, faoliyati, xatti-harakatlarini belgilovchi falsafiy, huquqiy,

ilmiy, badiiy, diniy va shu kabi tasavvurlari majmuidir. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashash jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish yoki o‘zgalardan olish jarayoni. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. **Birinchisi** – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. **Ikkinchisi** – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqaror taraqqiyot va xalqlarning tadrijiy rivojlanishiga raxna soladigan turli tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat bilan bog‘liq masalalar tobora dolzarblashib bormoqda. ...Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat birlamchi vazifamizdir”

Inson – tabiatning eng buyuk ne’mati. Unga aql-idrok, ong-farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, tarbiya yo‘li bilan inson bu fazilatlarga sayqal beradi va rivojlantiradi. Tarbiyaning ko‘pgina turlari mavjud bo‘lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va boshqalardan iborat.

Fikr tarbiyasi – inson faoliyati, uning o‘zligi va kuch-qudratini tashkil qiluvchi ma’naviy sifat. Insonning erki va ozodligi uning fikr erkinligi va mustaqilligi bilan bog‘liq. Insonning qolgan barcha mavjudotlardan farqli jihati – bu uning fikrlash qobiliyatidir. Shuningdek, insonlar bir-biridan o‘ziga xos o‘y-xayollari, mushohadalari, ongli faoliyat yuritishi, mustaqil fikrlash va tafakkur qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Tafakkur esa arabcha “mutafakkir” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’noli, chuqur fikrlash qobiliyati degan ma’nolarni anglatadi.

Inson hayotining dastlabki davrlarida tafakkur tabiat hodisalarini anglash, ulardan yashash uchun foydalanish yoki o‘zini muhofaza qilish shaklida bo‘lgan. Asta-sekin inson tafakkuri rivojlanib, yashash va mehnat qilishning moddiy hamda ma’naviy shakllari vujudga kela boshlagan. Shu asosda insonlar orasidagi

mahsulot ayriboshlash munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keltirib chiqargan.

Soʻz mulkning sultoni, buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi:

Ki har ishni qilmish odamizot,

Tafakkur birla yetmish odamizot.

Odam biror ishni qilarkan, albatta tafakkur qilishi kerak. Yaʼni fikr chigʻirigʻidan oʻtkazib, oʻylab koʻrib, soʻngra bajarishi lozim. Aksincha, atroflicha oʻylamasdan, chuqur fikrlamasdan qilingan ish odamning boshiga kulfatlar keltirishi mumkinligi yuqoridagi satrlarda oʻzining sheʼriy ifodasini topgan. Ayni paytda, tafakkurning inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi uqtirilgan. Oʻzbek pedagogikasining rivojiga katta hissa qoʻshgan, maʼrifatparvar yozuvchi Abdulla Avloniy oʻzining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida fikr tarbiyasi haqida toʻxtalib, quyidagilarni taʼkidlaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, koʻp zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, Muallimlarning diqqatlariga suyanan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, gʻayratli boʻlishiga sabab boʻladir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga soʻng darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bogʻliqdir. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor boʻlsa ham, ikkisi bir- biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga bogʻlangan jon ila tan kabidir”.

Maʼrifatparvar bobokalonimiz fikr tarbiyasining asoslari haqida toʻxtalar ekan, uning oʻqituvchi-murabbiylarimizga bogʻliq, muallimlarning yordamiga muhtoj va vijdoniga havola etilgan muqaddas vazifa ekanini alohida qayd etgan.

Demak, yosh avlodning tafakkur tarbiyasi masalasi pedagoglar hamda oʻqituvchi-murabbiylar zimmasiga jiddiy va masʼuliyatli vazifalarni yuklaydi. Har bir oʻqituvchi-murabbiy, qolaversa, har bir inson ushbu masʼuliyatni yuksak darajada anglab yetishi, oʻzining tafakkur dunyosini muntazam ravishda boyitib borishi va ularni oʻsib kelayotgan yosh avlod bilan baham koʻrishi bugungi kunda har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Aql tarbiyasi - inson uchun baxt eshiklarini ochuvchi va yo'l ko'rsatguvchidir. Insonni ulug'lash, uning qadriga yetish, o'sib kelayotgan yosh avlodni aql-idrokli, odobli va axloqli qilib tarbiyalash, ularni har tomonlama kamolotga yetkazish bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida insoniy nuqtayi nazardan amal qilishdir. Inson aqli tufayli oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratib oladi. Odamning aqlidroki bo'lmasa, uning odobi yuzaki va sun'iy bo'ladi. Bundaylarning odamligini bilib turasiz, biroq odamiyligi yo'qligidan nafratlanasiz.

Mehnat tarbiyasi - har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Insonning kundalik turmush tarzi uning mehnat faoliyati bilan bog'liq. Mehnat inson hayotining zaruriy shartidir. U inson uchun faqat moddiy yoki ijtimoiy zarurat emas, balki ma'naviy-ruhiy ehtiyoj hamdir. Mehnat tarbiyasi oilada yanada keng ko'lamda amalga oshiriladi. Oila boshliqlari va farzandlarning birgalikda mehnatni tashkil qilishi inson hayotida nihoyatda katta imkoniyatlar yaratadi. Kasbga bo'lgan mehr, mutaxassislikka doir bilim va ko'nikmalar mehnat tarbiyasi asosida shakllanadi.

Jismoniy tarbiya - inson a'zolarining sog'lom o'sishini ta'minlashi bilan birgalikda ularni aqliy va ma'naviy kamolotga yetaklaydi. "Sog' tanda – sog'lom aql", deb bejiz aytilmagan. Jismoniy tarbiya kishilarning tana salomatligini mustahkamlab, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga ko'maklashadi. Jismoniy tarbiya, sport har qanday yoshda insonning qaddi-qomatini go'zal qilish, kuch-quvvatini oshirish vositasi hisoblanadi. Barkamol avlodni jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va chidamli, qat'iyatli vatanparvar farzandlarni kamol toptirishdir.

Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy medisina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har bir oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklarni ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim.

Istiqloq yillarida kamdan-kam mamlakatda mavjud bo'lgan noyob idora – mahalla ham milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Dunyoning pastu balandini ko'rgan mahalla oqsoqollari, kayvoni onaxonlar o'zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga ma'naviy tarbiya va saboq berib, xalq an'analari davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani ibratlidir. Bunda mahallaga xos hayot tarzi va turmush madaniyati, qo'ni-qo'shni va mahallako'y o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri katta.

Ma'naviy tarbiyaning o'ziga xosligi haqida so'z borar ekan, uning tarbiyaning boshqa shakllari – axloqiy, badiiy-estetik, diniy, huquqiy va siyosiy tarbiya bilan aloqadorligi va bog'liqligini nazarda tutib, quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

- 1) ma'naviy tarbiya mazmunan va mohiyatan boshqa tarbiya shakllariga nisbatan keng ko'lamni va chuqur mazmunga ega.
- 2) ma'naviy tarbiyani axloqiy tarbiya doirasida cheklash (shunday xollar uchraydi) to'g'ri emas, chunki axloqiy fazilatlar ma'naviyatlilik mazmuni va mohiyatini bir tomonidir xolos.
- 3) ma'naviy tarbiya ma'lum ma'noda boshqa tarbiya shakllariga nisbatan integrativ funksiyani bajaradi, ya'ni har-bir tarbiya sohasida erishilgan natijalar oxir oqibatda shaxs ma'naviyati mazmuniga kiradi, uni boyitadi.

Ma'naviy tarbiya subyektlari tizimiga:

1. Shaxs (individd)

- Ma'naviy tarbiyaning asosiy subyekti shaxsning o'zi hisoblanadi. Shaxs o'z faoliyati, harakatlari va o'zini o'zi tarbiyalash orqali ma'naviyatini rivojlantiradi.
- O'z-o'zini anglash, o'zini tahlil qilish va o'zini takomillashtirish orqali ma'naviy tarbiya jarayonida faol subyekt sifatida qatnashadi.

2. Oila

- Oila ma'naviy tarbiyaning birlamchi va eng muhim subyekti hisoblanadi.

- Ota-ona va boshqa oila a'zolari bolaning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- Oila orqali insonda ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, milliy va madaniy an'analar singdiriladi.

3. Ta'lim muassasalari

- **Maktabgacha ta'lim tashkilotlari:** Bolalarda dastlabki axloqiy va ma'naviy tushunchalarni shakllantirishda ishtirok etadi.
- **Maktablar:** Ma'naviy tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Darslar va sinfdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarga ma'naviy qadriyatlar singdiriladi.
- **Oliy o'quv yurtlari:** Talabalarda kasbiy mahorat bilan birga ma'naviy va axloqiy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiladi.

4. O'qituvchilar va tarbiyachilar

- O'qituvchilar va tarbiyachilar ma'naviy tarbiyaning bevosita subyektlari hisoblanadi.
- Ular axloqiy-ta'limiy jarayonni tashkil etadi, yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltiradi.
- Ularning shaxsiy namunasi va pedagogik usullari o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

5. Jamiyat va ijtimoiy muhit

- Jamiyatning umumiy ma'naviy darajasi shaxsning ma'naviy tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
- Ijtimoiy muhit (atrofdagilar, do'stlar, hamkasblar) insonning axloqiy va ma'naviy sifatlarini shakllantirishda muhim subyekt sifatida ishtirok etadi.
- Jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va madaniy an'analar shaxsning ma'naviy rivojlanishiga yo'l ko'rsatadi.
- Davlat tashkilotlari, xususan, ta'lim va madaniyat sohasidagi organlar ma'naviy tarbiya siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi.
- Jamoat tashkilotlari yoshlarni ma'naviy rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlar va loyihalar tashkillashtiradi.

- Diniy tashkilotlar va din arboblari ma'naviy tarbiyaning muhim subyektlari hisoblanadi.
- Din insonda axloqiy me'yorlarni shakllantirish, hayot ma'nosini anglashi va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.
- Masjidlar, cherkovlar va boshqa diniy muassasalar orqali ma'naviy tarbiya o'ziga xos ravishda amalga oshiriladi.

6. Madaniy muassasalar

- Teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, san'at galereyalari va boshqa madaniy muassasalar ma'naviy tarbiyaning subyektlari hisoblanadi.
- Ular orqali shaxsda estetik did, milliy va madaniy qadriyatlarga hurmat, san'atga muhabbat shakllanadi.
- Badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va boshqa ijodiy faoliyat turlari shaxs ma'naviyatini boyitishda katta rol o'ynaydi.
- Kitoblar, filmlar va spektakllar orqali insonda hayotiy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar shakllanadi.

7. Axborot vositalari va ommaviy madaniyat

- Televizion ko'rsatuvlar, internet, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari shaxsning ma'naviy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.
- Axborot vositalari orqali ma'naviy qadriyatlar targ'ib qilinishi, shuningdek, axloqiy me'yorlar shakllantirilishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ma'naviy tarbiyaning qirralari juda ko'p. Ma'naviy tarbiyada milliy g'oya, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Shuningdik ma'naviy tarbiya subyektlari shaxsning ma'naviy rivojlanishiga turli xil yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda Sog'lom axloqiy-ma'naviy muhit zarur, masalan: oila, mahalla, ta'lim muassasalari, jamiyat va davlat hamda OAVning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy tarbiyaning

muvaffaqiyati yuqorida ko'rsatilgan subyektlarning faol ishtiroki va hamkorligiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References).

1. Mirziyoyev Sh Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, maktablar faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishdagi ma'ruzasi. 2022-yil 19-yanvar. <http://uza.uz/posts/33187> "Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari" www.oriens.uz.
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2019-yil 3- may. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4307/3079-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir.- Toshkent: Tasvir, 2021. - b.13
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 116.
6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta'lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1. – B. 77-81
7. Erkayev A.P. Ma'naviyatshunoslik (2-tom). -Toshkent: Ma'naviyat, 2018.- b.323.
8. Ismailova Z. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Chinor fayzi baland, 2021. – 334 bet.
9. .Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent "O'qituvchi" 1992.13- 14 sahifa,bet 62.